

BADIIY TARJIMANING TARJIMASHUNOSLIKDAGI MOHIYATI

Shoira Rustamovna Xodjayeva

Mustaqil izlanuvchi, Toshkent, Uzbekiston

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada badiiy tarjimaning adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikda tutgan o'рни, uning mustaqil fan sifatida shakllanishi, boshqa fanlar bilan munosabatlari va bog'liqligi haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, badiiy tarjimadagi ekvivalentlik va adekvatlik tushunchalari, badiiy tarjimonning portreti, tarjimadagi tarjima qilinmaslik muammosiga bo'lgan munosabatlar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: *badiiy tarjima, ekvivalentlik, adekvat tarjima, moxir tarjimon, tarjima muammosi.*

АННОТАЦИЯ

В статье представлена информация о роли художественного перевода в литературоведении и переводоведении, его становлении как самостоятельной науки, его отношениях и связях с другими дисциплинами. Также отражены понятия эквивалентности и адекватности в художественном переводе, портрет литературного переводчика, отношение к проблеме непереводимости в переводе.

Ключевые слова: *художественный перевод, эквивалентность, адекватный перевод, квалифицированный переводчик, проблема перевода.*

KIRISH

Ma'naviy va intellektual kamolotga erishish jarayonida badiiy asarlarlar o'qish nihoyatda katta ahamiyatga egadir, chunki badiiy kitoblar mutolaasi inson ongi va tafakkurini oshirishga va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. "Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. Kitob o'qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo'q".

Bundan tashqari yosh kitobxonlar uchun jahon bolalar adabiyotining gultoji xisoblanmish Joan Rouling qalamiga mansub Garri Potter haqidagi 7 ta kitob ham ilk bor 2015-yilda ingliz tilidan bevosita o'zbek tiliga o'girildi. Ushbu fantastik-sarguzasht roman eng xaridorgir kitoblar ro'yhatidagi old pog'onardan ko'p yillardan beri tushmay kelmoqda.

Shu bilan bir qatorda o'zbek mumtoz va zamonaviy asarlari dunyo tillariga tarjima qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. 2019-yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi "Navoiy va Bobur asarlarini xorijiy tillarga taglama va badiiy tarjima qilish masalalari" mavzusida respublika konferensiyasini

o'tkazdi. Bu badiiy tarjimonlarga bo'lgan talab tobora oshib borayotganligini va badiiy tarjima har qachongidan ham dolzarb ekanligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan murojatida tarjimaning madaniy hayotimizdagi ahamiyatini ta'kidlab shunday dedi: "Yurtimizda dunyo adabiyotining bebaho mulki bo'lgan ming-minglab asarlar tarjima qilinib, kitobxonlar qalbidan joy olgani, badiiy tarjima va tarjimashunoslik bo'yicha o'ziga xos ijodiy maktab shakllanganini alohida ta'kidlash lozim. O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, (ularni) tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish katta ahamiyatga ega".

ADABIYOTLAR METODOLOGIYASI

Tarjima faoliyati ko'p asrlik boy tarixga ega bo'lishiga qaramasdan, tarjimashunoslik mustaqil fan sifatida 1930-yillarda shakllandi va tarjima nazariyasining ilmiy asoslari tuzildi. Tarjimashunoslik, xususan badiiy tarjima bo'yicha juda ko'p olimlar izlanishlar olib borganlar (J.Ketford, P.Nyumark, S.Bassnett, L.Venuti, G.Gachechiladze, A.Shveytser, R.Minyar-Beloruhev, V. Komissarov, G'.Salomov, Q.Musayev, Sh.Sirojiddinov, G. Odilova va boshq.) va tarjimashunoslikdagi muammolarni hal qilish maqsadida uni izchil va sistematik tarzda o'rganishga qo'l urdilar.

Badiiy tarjima soxasining yetuk mutaxassisi A.Popovichning ta'kidlashicha, badiiy tarjima nazariyasi tor ma'noda to'rtta fanga – qiyosiy tilshunoslik, qiyosiy stilistika, adabiy komparativistika nazariyasi va adabiyot nazariyasiga asoslanadi. Badiiy tarjima o'z nazariyasi va amaliyoti egaligiga qaramasdan, undagi muammolar komparativistlar uchun katta tadqiqot maydonini tashkil etadi. Ma'lumki, badiiy tarjimaning asosiy vazifasi madaniyatlararo va adabiyotlararo muloqotni rivojlantirishga ko'maklashishdir. Badiiy tarjima jarayonida ushbu fanlarning faol ishtiroki sifatli tarjima maxsulini yaratadi.

Asosiy qism: Ayrim g'arbiy olimlarining aytishlaricha, tarjimashunoslik bilan semiotika o'rtasida yaqin aloqa mavjud. Tarjimashunos olim T.Xoks tarjima jarayonida e'tiborga olish kerak bo'lgan birinchi narsa bu tarjima lingvistik faoliyatning markaziy elementi ekanligi va shu sababdan uni semiotikaga bog'lash to'g'riroq bo'lishini aytib o'tgan.

Badiiy tarjimaning bir qator fanlar bilan bog'liqligi tarjima maxsuliga albatta ta'sir qiladi. Amaliyotda tez-tez uchrab turadigan muammo bu tarjimadagi adekvatlik va ekvivalentlik tushunchalarini chalkashtirishdir. A.D.Shveytserning fikriga ko'ra,

adekvatlik tillararo kommunikativ aktning kechishi bilan bog'liqdir, ya'ni tarjima jarayonining kommunikativ sharoitlarga mos kelishini aniqlaydi.

Sh.Sirojiddinov, G.Odilovalarning ta'kidlashicha, adekvat tarjima ekvivalentlikning oliy darajasi bo'lib, unda asliyatning janriy-stilistik talablari, barcha lisoniy va g'ayrilisoniy (ekstralingvistik) omillar hisobga olingan, maksimal darajada hissiyot va asliyat ruhi saqlangan bo'ladi. Har bir adekvat tarjima, albatta, ekvivalent bo'ladi, ammo har bir ekvivalent tarjimani adekvat deb bo'lmaydi.

V.Komissarovning fikriga ko'ra, har qanday til belgisi odatda uch hil munosabatni, ya'ni semantik, sintaktik va pragmatik munosabatlarni o'zida mujassam etadi. Birinchisi – til belgisining u anglatadigan predmet bilan aloqasini aks ettiradigan, ikkinchisi – til belgisini mazkur tizimga aloqador boshqa belgilar bilan bog'lab turadigan, va uchinchisi – til belgisi bilan muloqot jarayonida undan foydalanuvchi shaxslar o'rtasidagi aloqani muayyan qiladigan munosabatlardir. Shunday qilib, til belgisi semantik (denotativ), sintaktik va pragmatik ma'nolari bilan ajralib turadi.

Q.Musayev fikriga ko'ra, pragmatik omillar ekvivalentlikning tarkibiy unsuri hisoblanib, ularning qayta yaratilishi tarjimaning asliyatga kommunikativ to'la-to'kis mosligini vujudga keltiradi. Natijada tarjima muqobil uslubiy xususiyat kasb etib, uni o'qigan kitobxon asliyat sohibi asar mutolaasidan oladigan taasurot darajasida ta'sirlanadi.

Tarjima bu jarayon va faoliyat natijasi sifatida ma'lum bir retseptorga, ya'ni til madaniyatining tipik vakiliga qaratilgan bo'ladi. Tarjima akti pragmatik jihatdan ikki yo'nalishga qaratilgan. Birinchidan, tarjima asliyat matnini to'liq takrorlashdan iborat bo'lsa, ikkinchidan, u pragmatik jihatdan retseptorga qaratilgan bo'ladi. Asliyat matni va tarjimaning bir-biriga o'xshashlik darajasi tarjimonning manba matnidan ma'lumotni moslashtirish jarayonida ega bo'lgan erkinlik darajasiga bog'liqdir deya ta'kidlaydi Ye.Ogneva. Tarjimonning erkinlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, tarjima matni asliyat matnidan shunchalik uzoq bo'ladi va asliyat matnining mazmuni va shakli tarjimada kam darajada aks ettiriladi, shuningdek, kitobxon asliyat matni haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lishiga sabab bo'ladi.

Ma'lumki, tarjimada tarixiylik va milliylik ifodasi, frazeologik birliklar, xos so'zlar, obrazli va xissiy-ta'sirchan so'zlarning tarjimasi tarjimon uchun bir qator qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Ammo ba'zi bir olimlarning fikriga ko'ra, tarjimada ayrim so'z va iboralarning tarjima qilinmaslik xodisasi uchrab turadi. Faylasuf va tilshunos olim V.Gumboldt falsafasiga ko'ra, "har qanday tarjima, albatta, imkonsiz vazifani hal qilishga urinishdek tuyuladi. Negaki, har bir tarjimon o'z xalqining didi va tili hisobiga o'z asliyatiga yoki o'z xalqining o'ziga xosligiga

juda qattiq yopishib olib, ikki tuzoqdan biriga tushib qolishi muqarrar. Ularning orasidagi narsaga erishish nafaqat qiyin, balki imkonsizdir”. Uning fikricha, har bir tarjimon ertami kechmi tarjimasini imkonsiz bo’lgan vasiyatga duch keladi va bu xodisa har bir til noyob ekanligi bilan izohlanadi.

V.Gumboldt izidan F.Shleyermaxer, E.Sepir, T.Uorf, U.Uinter kabi bir qator tilshunos olimlar uning nazariyasini qo’llab quvvatladilar. Ushbu olimlarning pessimistik qarashlari ular yozgan adabiyotlarda aks ettirilgan. F.Shleyermaxer tillar o’rtasida ideal ekvivalentlikka erishish imkonsizligini ta’kidlasa, amerikalik tilshunos va antropolog olim E. Sepir “har bir tilning belgilar tizimi noyobligi tufayli tarjima jarayonida asl ma’no yo’qolmasligining iloji yo’q” deb yozadi.

T.Uorf ta’kidlashicha, tarjimaning imkonsizligi nafaqat texnik, balki falsafiy muammodir. U.Uinter esa tarjimonni nusxa ko’chirmoqchi bo’lgan haykaltaroshga qiyoslaydi va uning mehnati asl nusxa bilan hech qachon bir xil bo’la olmasligini ta’kidlaydi.

V. Benyamin esa, aksincha, tarjima har qanday holatda ham, hattoki imkonsiz deb topilganda ham, amalga oshirilishi kerakligini va dolzarbligini yo’qotmasligini e’tirof etadi.

P.Riker “tarjima qilinish va qilinmaslik” xodisasi o’rniga “asliyat matniga sodiq qolish yoki qolmaslik” tushunchalarini qo’llash afzalligini ko’rsatadi. U “nazariy jihatdan tarjima imkonsiz deb topilgan taqdirda ham, u amaliyotda tarjima qilinishi mumkinligini, lekin buning evaziga tarjima asliyatga sodiq qolgan qolmaganligiga gumonlar paydo bo’lishini” ta’kidlagan.

J. Katzning fikriga ko’ra, bir tilda ifodalangan matn, boshqa tilda ham til vositalari yordamida o’z ifodasini topishi mumkin. Hech bir tilning vositalari orqali ifodalab bo’lmaydigan so’zninggina tarjimasini yo’qdir.

Bundan ko’rinib turibdiki, badiiy tarjimon har qanday murakkab vasiyatda ham o’quvchiga asl ma’noni yetkazish imkonini topishi kerak. Tarjima jarayonida tarjimon ham yozuvchi, ham shoir va hammuallif vazifasini bajarmog’i lozim. Ushbu murakkab jarayon tarjimondan ulkan bilim va malaka, ijodiy izlanish va matn mazmunini chuqur anglash bilan bir qatorda badiiy asar muallifining ijodiy uslubini saqlab qolishni talab qiladi. Tarjimon muallif uslubini saqlashi muhimligi xususida G’. Salomov shunday deydi: “Uslub badiiy asarning umumiy jarangosi va koloriti, obrazni tahlil qilish usuli, san’atkorning voqelikka bo’lgan munosabati, prinsipidir. Bular badiiy jarayonning yakunlovchi bosqichida shaklning asosiy tomonlarini yaxlit aks ettiruvchi xususiyat sifatida asarda zohir bo’ladi. Uslubni muallifning umumiy ijodiy bisotidan ajratgan holda, ko’r-ko’rona asarning lisoniy xarakteristikasiga aylantirib qo’yish mumkin emas. Obraz bilan uslub o’zaro chambarchas bog’langan.

Ularning bir-biriga bog'liqligi, o'zaro taqozodorligi yozuvchining voqelikni badiiy aks ettirishiga asoslanadi".

Badiiy tarjimonning shaxsiga to'xtaladigan bo'lsak, biz biror bir badiiy asarni mutolaa qilganimizda, uni badiiy tarjimonning nuqtai nazaridan kelib chiqib tasavvur qilamiz. Badiiy asarlar kitobxonlarning qalbidan joy olishi badiiy tarjimonning dunyoqarashi kengligiga, saviyasining yuqoriligiga, mahoratiga bog'liq bo'ladi, chunki badiiy tarjimon muallif va o'quvchining o'rtasida vositachi, misoli bir ko'prik vazifasini o'taydi. Badiiy tarjima san'atning bir turi sanalgani bois, u tarjimondan ijodkorlik iste'dodini talab qiladi.

Y. Lotmanga ko'ra, badiiy matnni to'g'ri va chuqur interpretatsiyasi tarjimondan asarda tasvirlangan va asar muallifi ijod qilgan davrlarni yaxshi bilishni, shuningdek, asar yaratilishining falsafiy va ijtimoiy-tarixiy shartlarini bilishni talab qiladi, ya'ni matndan tashqari strukturalarni ham qamrab oladi.

XULOSA

Badiiy tarjimaning eng muhim tamoyillaridan biri bu tarjimada har bir gapga alohida emas, balki yaxlitning bir qismi sifatida yondashish lozim va uni boshqa qismlar bilan birgalikda ko'rib chiqish kerak. Shu sababdan tarjimon har bir gapning faqat aniq ma'nosini izohlamasdan, "badiiy obraz yaratish, umumiy kayfiyat, atmosfera va qahramonlarning tafsivi ustida ishlashi kerak. Bunda mos so'zlarni, sintaktik strukturalarni va boshqa elementlarni to'g'ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy tarjima muammolarini hal qilish bir necha sabablarga ko'ra muhim ahamiyatga ega. Eng avvalo, bu turli xalqlarning madaniy va adabiy merosini asrab-avaylash, ularning asarlarini global auditoriya uchun taqdim etishga yordam beradi. Bunda tarjimonlar asliyat matnining ohangini va uslubini saqlab qolish, uni maqsadli tilning madaniy kontekstiga moslashtirish, asliyat matniga sodiq qolish va ekvivalentlikni ta'minlash, adabiy asarning yaxlitligi saqlash kabi ko'plab qiyinchiliklarga duch keladilar. Ushbu muammolarni hal qilish madaniyatlararo muloqotni mustahkamligini ta'minlaydi va lingvomadaniy xilma-xillikni targ'ib qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Salomov G'. Tarjima tashvishlari. – T.: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. B. – 16.
2. Попович А. Проблема художественного перевода. – Москва: Высшая школа, 1980. – С. 33.

3. Швейцер А. Д. К проблеме лингвистического изучения процесса перевода // Вопросы языкознания. М., 1970. № 4. 216 с. – 118 с.
4. Комиссаров В. Н. Лингвистика перевода. – М.: Международные отношения, 1980. Стр.-101.
5. Комиссаров В. Н. Общая теория перевода. Проблемы переводоведения в освещении зарубежных ученых: учеб. пособие. – М.: ЧеРо, 1999. С.-134.
6. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. С.65-67.
7. Schleiermacher F. On the Different Methods of Translating. – L.: Routledge, 2000. P.43-63.
8. Sapir E. Selected Writings of Edward Sapir in Language, Culture and Personality. Edited by David G. Mandelbaum. – Berkeley: University of California Press, 1949. P.162-165.
9. Whorf B. L. Language, Thought, and Reality. Selected Writings of Benjamin Lee Whorf. Edited by John B. Carroll. – NY.: MIT Press, 1956. P. 214-215
10. Katz J.J. The Philosophy of Language. – New York: Harper & Row, 1966. 326 p.
11. Jamila Rustamova. (2024). FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK HOUSEHOLD WORDS IN LINGUISTICS. Conferencea, 40–46. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/3348>
12. Begmatova, Buzakhro Marufjanovna, and Sarvinoz Sayfullaevna Kasimova. "STUDY OF THE PROBLEM OF PREDICATIVITY AND ATTRIBUTION IN LINGUISTICS."
13. Begmatova, B. M., Mutalova, G. S., & Kasimova, S. S. (2023). The Direct Object And Its Use In Arabic Language. Boletin de Literatura Oral-The Literary Journal, 10(1), 3601-3609.
14. Teshaboyeva, Ziyodakhon Qodirovna. "A Cognitive Study of “Baburname”’S Translations and Principle of Compiling a Textual Dictionary." Journal of Pharmaceutical Negative Results (2022): 1994-2006.
15. Inomiddin Imomov. English Speaking Nation: Uzbekistan. Journal WATESOL Newsletter. 2022/11/30. Pages 22-25
16. Qosimova, S. S. (2022). Analysis Of Inflectional Terms In The Study Of Hamiduddin Dariri. Journal of Positive School Psychology, 6(3), 2200-2203.
17. RUSTAMOVA, J. (2024). SYSTEM CONNECTIONS IN THE SEMANTIC STRUCTURE OF KITCHEN VOCABULARY. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(1), 28–30. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/25546>

18. Jamila Rustamova. (2024). FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK HOUSEHOLD WORDS IN LINGUISTICS. Conferencea, 40–46. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/3348>

19. Касымова, С. С. (2012). Способы изложения синтаксических отношений в произведении «Мукаддима» Хамидуддина Дарири. Вестник Челябинского государственного университета, (12 (266)), 127-131.